



THE QUESTION OF THE COMPARATIVE STUDY OF THE
LEADING IMAGES IN THE VARIANTS OF THE SINGLE AXMAT
EPIC

Tulaganova Nilufar Nigmat qizi

Master degree student

Annotation. This article deals as much as possible with the comparative study of the leading characters in the variants of the single Axmat epics.

Key words: ramanik, plot in an artistic play, knot in an art play, solution in an art play.

СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВЕДУЩИХ ОБРАЗОВ
ОТДЕЛЬНЫХ ВАРИАНТОВ АХМАТСКОГО ЭПОСА

Тулаганова Нилуфар Магистрантка

Аннотация. Рассматривается сравнительное исследование главных героев версий эпоса Ахмада сына Эргаша Джуманбулбула и сына Рахматуллы Юсуфа.

Ключевые слова: раманик, сюжет, узел в художественной пьесе, решение в художественной пьесе.

“Yakka Ahmad” dostoni variantlarida yetakchi obrazlarning qiyosiy tadqiqi masalasi

To‘laganova Nilufar Nigmat qizi

Alisher Navoiy nomidagi TOShDO‘TAU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining “Yakka Ahmad” va Rahmatilla Yusuf o‘g‘lining “Yakka Ahmad” dostonlari



variantlarida yetakchi obrazlarning qiyosiy tadqiqi masalasi imkon qadar yoritilgan.

Kalit soʻzlar: romanik, syujet, obrazlar, tugun, yechim.

Xalq — folklorning ijodkori. Folklor qabila, urugʻ, elat, xalq yoki millatning mafkurasi va psixologiyasini aks ettiradi. Uning paydo boʻlishida hal qiluvchi rol oʻynaydi. Boshda ijod gʻayrihuuriy holda boʻlgan. Ijodkor gʻayriixtiyoriy tarzda mohiyatni tushunmagan holda ijod etar edi. Chunonchi, ovchi choʻqqida hayvon rasmini beixtiyor chizar yoki uni qanday qilib ov qilganligini urugʻdoshlariga aytib bera turib, badiiy obraz yaratilayotganligini oʻzi anglamas edi. Shu asnoda, amaliy mulohazalar zahirida «sanʼat asari» tugʻilardi: rasm ovchiga yoʻl koʻrsatar, raqs qushlar va hayvonlar harakatini takrorlash asosida koʻrinmasdan ularga yaqinlashish yoʻli vazifasini bajarsa, qoʻshiq molinat jarayonining ritmik regulyatori — sozlovchisi edi. Ibtidoiy jamiyatda folklor amaliyot bilan mustaqil kurash vositasiga aylanib shakllandi. Qoyalardagi tasvirlar, bolta va boshqa mehnat qurollari qadimiy ajdodlarimizning tabiiy tuygʻularini shakllantira bordi, hayvonlardan farqli oʻlaroq, badiiy ijod qilish iqtidorini uygʻota boshladi, ulardagi maʼnaviy kuchning qoʻpol amaliy ehtiyojlar asirligidan qutulishiga koʻmaklashdi. Albatta, mif, qadimiy mehnat quroli — boltaning ixtirosi ekanligi sanʼatning ibtidosi boʻla olmas, lekin ibtidoiy inson unda oʻz «ijodiyoti»ni koʻrish hisoblanadi. Asta-sekinlik bilan bunday takrorlash va takomillashtirish ehtiyojga aylana bordi. Endi insonga boltaga dasta yasash kamlik qilar, shuning uchun oʻsha dastaning qulay boʻlishi zarurligini anglab yetdi. Natijada, mehnat qurolining koʻrkam va qulayligi uchun kurash estetik tafakkur rivojiga turtki bera bordi. Odamlar endi mehnat qurollariga turli-tuman rasmlar chizadigan boʻldilar. Boshda ovchi qanday ov qilganligini dalillardan chekinmay, hikoya qilgan boʻlsa, bora-bora shu hikoyasiga oʻz hayotiy tajribalarini qoʻshgan holda, hayot epizodlarini bir-biriga solishtirgan holda, koʻrgan-kechirganlari bilan boyitilgan holda xayoliga erk berib ifodalaydigan boʻldi. Xayolga erk berish zahirida ibtidoiy odamda estetik tuygʻu shakllana



bordi, go'zallikni tushunish va anglash teranlashdi va shular zaminida xalq og'zaki ijodiyotining dastlabki namunalari yuzaga keldi. Shunga qaramay, M.Gorkiy uqtirganidek: «Kishilar juda qadimgi davridayoq orzu qilganlar. Faeton, Dedal va uning o'g'li Ilkar hamda «uchar gilam» haqidagi afsonalar shundan dalolat beradi. Odamlar yerda tez harakat qilishni o'rganganlar; daryoga uning oqimidan ham tez suzish istagi eshkak va yelkanni ixtiro qilishga olib keldi, uzoqdan turib dushman yoki maxluqni yo'q qilishga intilish esa palaxmon va kamonlaming vujudga kelishiga sababchi bo'ldi. Insonlar bir kechada juda ko'p mato to'qishni, eng yaxshi turar joy, hattoki, qasr, ya'ni dushman hamlasiga chidash bera oladigan mustahkam qo'rg'on qurishni xayol qildilar. Bu yo'lda ular qadimiy mehnat qurollaridan charxni va mato to'qish uchun ibtidoiy dastgohni yaratdilar hamda dono Vasilisa haqidagi ertakni ijod etdilar». Shu zaylda mehnat jarayoni, ijtimoiy taraqqiyot tufayli mehnatning turli tarmoqlarga taqsimlanishi esa, o'z navbatida, so'z san'atini ham shaklan, ham mazmunan xilma-xil xarakter kasb etishini ta'minladi. Aytaylik, og'zaki so'z san'ati paydo bo'lishi jarayonida odam so'zning magik (ilohiy, sehrli) qudratiga sig'inar, shu asosda o'z xatti-harakatlarini belgilar va o'z mehnatining samarasini baholar edi. Natijada, so'z marosim bilan bog'lana boshladi, u yoki bu marosim mohiyatini ifoda etdi. Jamiyat taraqqiyoti o'zgargan sari ijtimoiy tabaqalanish chuqurlasha bordi: xalq ikki ijtimoiy guruhga — hukmronlik mavqeyidagi xo'jayinlar va ularga itoat qilishga mahkum qilingan mehnatkashlar toifalariga bo'lindi. Bu hol manfaatdorlik nuqtayi nazaridan ular o'rtasida ma'lum ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Natijada, folklorda zolimlardan norozilik, zolim kuchlarga nafrat motivlari paydo bo'la boshladi. Mazlum omma hayot haqidagi tushunchalarini, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-falsafiy, badiiy-estetik, diniy-axloqiy qarashlarini ifoda etish bilan folklor asarlarining g'oyaviy mazmundorlik jihatidan xalqchilligini ta'minladi. Ilg'or g'oyaviylik — folklor xalqchilligi negiziga aylandi. Xalq og'zaki ijodi namunalarida aks etgan ijtimoiy-tarixiy voqealar hamisha oddiy mehnat kishilari — umumxalq manfaatlari nuqtayi nazaridan baholanadi. Buning mohiyatini M.Gorkiy shunday izohlagan edi: «Folklor eng qadim zamonlardan boshlab



o'ziga xos ravishda hamma vaqt tarixga hamroh bo'lib keladi. Folklor Lyudovik XI va Ivan Grozniyning faoliyatini o'zicha baholaydi.

Uning fikri monarxlarning feodallar bilan urushi va xalq hayotida qanday karomat ko'rsatganligi masalasi bilan qiziqqan kishilar tomonidan yozilgan baholardan keskin farq qilib turadi ».4 Bu holni xalqning Amir Temur va Zahiriddin Boburga xayrixohlik va chuqur muhabbatini ifodalovchi qanchadan-qancha afsona va rivoyatlarida, tarixiy dostonlarda ko'rish mumkin. Qolaversa, shu xalqqa zulmni haddan oshirib, nafratga giriftor bo'lgan Abdullaxon I haqida «Abdullaxon — beustaxon» topishmog'ini yaratib, uning burgaday qonxo'rligiga shama qilgan edi. Xalq o'z ijodiyotiga hamma zamonlarda ham mehnatni va mehnat kishisini, uning yuksak ma'naviy jismoniy go'zalligini kuylashdan tolmadi. Uning g'oyaviy va estetik qarashlari insonning buyuk bunyodkorlik faoliyati, jismoniy va axloqiy sog'lomlasha boruvi, ma'naviyati va e'tiqodining aynanlashuvi bilan takomillasha bordi. Natijada, xalq o'z ijodida harcha yovuzlig-u yomonliklarni, noxushlig-u toshbag'irliklarni, shafqatsizlig-u qabohatlarni, ezgulikni sharaflashga xizmat qiluvchi motiv tarzida talqin qildi, shu sababli folklorda mehnat kishisi — hamisha g'olib, mag'lublikni bilmaydi. Folklorda xalq optimizmi yengilmas qudratga ega pafos darajasiga ko'tarilgan. Folklor yuksak badiiyligi bilan ham ajralib turadi. Unda voqelikni ifodalashning doston, ertak, maqol, qo'shiq, topishmoq, afsona, rivoyat va askiya singari xilma-xil janrlari shakllangan. Xalq ijodiyotining voqelikni badiiy umumlashtirish o'yin (prinsip)larida, shuningdek, bir qator kompozitsion usul (priyom)larida, chunonchi, sujet va uning uzvlari, obrazlilik, tasviriy vositalarida talay o'ziga xosliklar mavjud.

Folklorda tasvirlangan voqelik vaqt (zamon) e'tiboriga ko'ra, o'tmishga daxldor, shu sababli u yoki bu janr tabiatida, shuningdek, til xususiyatlarida o'sha qadimiy izlargina saqlanib qolgan. Buni badik, kinna, olqish va qarg'ishlarda ibtidoiy ajdodlarimizning so'zning magik qudratiga sig'inganlari, shuningdek, folklor namunalari tilida arxaik ifodalar va dialektizmlarning farovonligini yaqqol



tasdiqlaydi. Folklor asarlar tili — jonli so‘zlashuv tili, shu bilan birga arxaik ifodalar va dealiktizmlar ular uchun me‘yor sanaladi.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining “Yakka Ahmad” dostonida Oqbilak ro‘molining uchiga xat tugib jo‘natadi. Ushbu variantdan farqli ravishda Rahmatilla Yusuf o‘g‘lining “Yakka Ahmad” dostonida Oqbilak ikki gaz qora ipdan matolar olib, belqars qildiradi. Anvoyi hayvonlar, gullarning sur‘atini chizdirib, uning o‘rtasiga o‘zining sur‘atini chizdiradi.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining “Yakka Ahmad” variantida Ahmad dovyurak, tez qaror qabul qila oluvchi, yori uchun har qanday to‘siqlarni yengishga tayyor obraz sifatida gavdalanadi. Xatni olishi bilan otasining qarshiligiga ham qaramasdan yo‘lga otlanadi.

Eshitib ol menday o‘g‘ling so‘zini,

Yor uchun sarg‘aytar gulday yuzini.

Men izlayman ketgan shoxning qizini,

Araz urib ketgan jonning o‘zini.

Rahmatilla Yusuf o‘g‘lining “Yakka Ahmad” variantida esa Ahmad qo‘rqoq, ikkilanuvchan, bexush inson sifatida tasvirlanadi.

Hey attang-a, nega Kashal bormadim,

Oqbilakoy bilan davron surmadim,

Behushlikda o‘zim bilmay, Qaldirg‘och,

So‘ng Kashallik xabarchini ko‘rmadim?

Tegradoshim bir o‘y chirmab olibdi,

Karvon bobom uzab ketib qolibdi,

Bundan keyin ne istarim bilmayman,

Shuytib akang lolu hayron bo‘libdi.



Men Kashalga Shoxdorshohning Sarixonga bergan muhlatidan oldin bora olamanmi? Borganda ham o‘zim unday ulug‘ podsho bilan barobar bo‘la olamanmi,- deb dovdirab qoldi. Shunda Qaldirg‘och oyim akasining bunday bo‘shangligiga achchig‘i keldi. Qahramonning ruhiyatida ikkilanish, o‘ziga ishonmaslik, beqarorlik holatlari namoyon bo‘ldi. Epos mantig‘iga ko‘ra, dostonning bosh qahramoni alplik hislatlariga ega bo‘lishi, mard, dovyurak, har qanday qiyinchiliklarga bardosh bera olishi lozim. Ushbu doston syujeti liniyasida esa buning aksiga guvoh bo‘lamiz.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining “Yakka Ahmad” variantida Baxil pari deb nomlangan obraz mavjud. Ushbu obraz oldindan Ahmadning boshiga tushadigan shiddatli kurashlardan ogoh etadi. Xususan, Baxiloy degan bir pari har haftada, o‘n kunda bir kelib, Qaldirg‘ochoy bilan gaplashib ketar edi. Shu pari aytar edi: “Chechang-Oqbilakka sovchi keldi, bir yilga muhlat oldi. Qirq zangi bir rabot qilib, bir bandargohda akangning yo‘lini to‘sib yotibdi. Undan nari olti kunlik yo‘lda Xonchorbog‘ degan bir joyda Boboayyor qirq shogirdi bilan akangning yo‘lini angib yuribdi”, -der edi.

Rahmatilla Yusuf o‘g‘lining “Yakka Ahmad” variantida esa mantiqiy jihatdan Baxil pari obraziga o‘xshash Sursuluv pari obrazi dostoniga kiritilgan. Ushbu obraz doston voqealari davomida ikkinchi planda. Birinchi planda esa Qaldirg‘och obrazi turadi. Bu dostonda Yakka Ahmadning boshiga tushadigan kulfatlardan Qaldirg‘ochning o‘zi ogoh etadi. Qaldirg‘ochga Sursuluv ham, romchi ham hech kim aytmaydi. Uning o‘zi biladi. Dostonning aynan mana shu joyida Qaldirg‘och kattalarning xangomalariga quloq solgan deyilgan. Demak, agar shunday bo‘lsa, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li tomonidan ijro etilgan “Yakka Ahmad” dostoni ushbu variantdan nisbatan oldinroq ijro etilgani hamda ushbu doston xalq xabardor bo‘lganligi mantiqiy jihatdan haqqoniy aks etgan. Shuning uchun ham Qaldirg‘och syujet rivojidan yaxshi xabardor. Bundan tashqari, Ahmad yo‘lda uchragan Sursuluvga qaramadi.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining variantida esa Ahmad Baxil pariga yuz o‘girib qaraydi. Shundan so‘ng qahramon voqealar girdobiga tortiladi. Ushbu




variantning xarakterli jihatlaridan biri Baxil parining qarg‘ishi hisoblanadi. Asarning boshlanish qismida Baxil parining noroziligiga uchragan Ahmad qarg‘ish oladi. Shundan so‘ng qahramon kurash girdobiga tortiladi.

Muqaddas Qur‘oni Karim va Hadisi Shariflarda shunday deyilgan uch turdagi kishining qarg‘ishi o‘tadi:

- 1.Ota-ona
- 2.Musofir
- 3.Mazlum

Baxil pari obrazi bu yerda chin dildan xafa bo‘lgan inson: mazlum qiyofasida namoyon bo‘lgan. Shuning uchun ham uning qarg‘ishi urdi. Shundan so‘ng qahramon ko‘plab qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Asar voqealarida qarg‘ish dostonning tugunini tashkil etsa, Baxil parining duosi yechim hisoblanadi. Ya’ni Baxil parining duosi bilan qahramon hayotidagi kulfatlar o‘z nihoyasiga yetdi.

Qarg‘ish  Duo

Xulosa sifatida aytganda, Yakka Ahmad dostonining variantida qarg‘ish duoga zid qo‘yilgan. Shuningdek, obrazlarning xarakterli jihatlarini tizimli ravishda yoritilganligi inkor etib bo‘lmas haqiqatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. - Toshkent:Musiqa, 2010.
2. Mirzayev T. “Epos i skazitel”. - Tashkent: Fan, 2008.
3. Mirzayev T. «Alpomish^a dostonining o‘zbek variantlari. - T.: Fan, 1968.
4. Mirzayev T. O‘zbek xalq ijodi durdonalari // Alpomish. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. Birinchi jild. Nashrga tayyorlovchi so‘z boshi, ilmiy izohlar va lug‘at mullifi To‘ra Mirzayev. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2015.